

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY  
TADQIQOT UNIVERSITETI**

**YER RESURSLARI VA KADASTR FAKULTETI**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI OLDI AMALIYOTI  
DASTURI**



**TOSHKENT - 2023**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY  
TADQIQOT UNIVERSITETI**



**«TASDIQLAYMAN»**

Oliy ishlari bo‘yicha  
prorektor

B. Xudayarov

2023 y.

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI OLDI AMALIYOTI**

**DASTURI**

Respublikamiz oliy ta‘lim muassasalarining 5311200 (60722700) - Yerni masofadan zondlashda innovatsion texnologiyalar va 5313400 (60722600) - Geodeziya va geoinformatika bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan

**TOSHKENT - 2023**

Ushbu dastur “TIQXMMI” MTU uslubiy Kengashining 2023-yil 25-oktabrda bo‘lib o‘tgan №3-sonli majlisida ko‘rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

**Tuzuvchilar:**

Oymatov R.K. - «Geodeziya va geoinformatika» kafedrasini mudiri, dotsent

Inamov A. - «Geodeziya va geoinformatika» kafedrasini dotsenti

**Taqrizchi:**

Mayinov SH. - “Respublika aerogeodeziya markazi” direktor o‘rinbosari

## **KIRISH**

Respublikamizning yer resurslarini baholash, qishloq va suv xo‘jaligi, tabiiy resurslarni boshqarishda Oliy ta‘lim tizimiga tayyorlanadigan mutaxassislariga bo‘lgan talabni tubdan o‘zgartirish maqsadida, mustaqil fikrlovchi uzluksiz ta‘limning zamonaviy talablariga javob beradigan, o‘zi tanlagan bilimlar sohasi, yo‘nalishi (ixtisosligi) bo‘yicha ijodiy faoliyatga tayyor, Respublikamizning ilmiy texnikaviy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishini ta‘minlashga qodir yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash vazifasi yuklatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-42-sonli qarorida belgilangan vazifalar, Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 8 maydagi “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida oliy ma‘lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3702 son, 2018-yil 6-iyundagi «Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3775-son Qarorlari, 2019 yil 10 oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-son Farmonida ko‘rsatilgan oliy ta‘lim jarayonida nazariya va amaliyot yaxlitligi ta‘minlash maqsadida ushbu amaliyot dasturi ishlab chiqilgan.

Xalq xo‘jaligida ishlab chiqarishini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu mavjud yer va suv resurslaridan samarali foydalanishdir. Shu maqsadlarni amalga oshirish uchun xizmat qiladigan tadbirlardan biri geodezik, kartografik va Yerni masofadan zondlash ishlarini olib borish hisoblanadi.

Ushbu dastur yuqorida ko‘rsatilgan yo‘nalish bo‘yicha ta‘lim olayotgan talabalarning Respublika xalq xo‘jaligi uchun yetuk kadrlar bo‘lib yetishishlarida asosiy amaliy ko‘nikmalar olishga xizmat qiladi.

## **I. BITIRUV MALAKAVIY ISHI OLDI AMALIYOTI MAQSADI VA VAZIFALARI**

**Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyotini bajarishdan asosiy maqsadi:** ta'lim bo'yicha olingan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish va muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo'llash, ijodiy ishlash, xal etilayotgan masalaning (muammoning) qo'yilish jarayonidan boshlab, uni to'la nihoyasiga etkazish bo'yicha qaror qabul qilishda bo'lgan mas'uliyatni his etishga o'rgatish, zamonaviy ishlab chiqarish, iqtisodiyot, texnika va madaniyatning rivojlanishi sharoitida talabalarni mustaqil ishlashga tayyorgarligini ta'minlashdan iborat.

### **Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyotini bajarishdagi vazifalar:**

- O'zbekiston Respublikasidagi qishloq va suv xo'jaligi, ekologiya, barcha tabiiy resurslarni tadqiq qilishda Yerni masofadan zondlash texnologiyalarini qo'llash, kosmik suratlarni tahlil qilish, loyihalash va qurish ishlarini olib borish, laboratoriya ishlarida bevosita ishtirok etib, ulardan foydalanishni o'rganish, dala sharoitida geodezik-kartografik o'lchash uslublarini qo'llashni o'rganish, yer tuzish, yer kadastri, geodeziya, kartografiya ishlarini olib borish, bitiruv malakaviy ishini tayorlash uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni to'plash, kuzatuv ishlari olib boriladigan xududni ko'rish, ularni loyixasi bilan tanishish, bitiruv malakaviy ishida qabul qilingan ob'ektlarini ishlash rejimini tabiiy sharoitda kuzatish va taxlil qilish;

- o'quv dasturiga asosan o'qitilgan barcha fanlardan olingan nazariy va amaliy bilimlarini qo'llay olish, texnikaviy yechimlar kompleksini ishlab chiqish, fikr, mulohazalarni aniq ravshan ifoda etish, qabul qilingan loyihaviy yechimlarning umumiy texnik iqtisodiy samaradorligini baholash;

- Yerni masofadan zondlash, geodeziya, kartografiya va geoinformatika ishini yuritish uchun tayyorgarlik ishlarini o'tkazish;

- Yerni masofadan zondlash, aerokosmik suratlar bilan ishlash, ularni texnik va huquqiy rasmiylashtirish;

- viloyat, tuman va alohida qishloq xo'jalik korxonalarining yer fondidan foydalanishni tahlil qilish;

- yerdan foydalanuvchilar va yer uchastkasi mulkdorlarining yer uchastkalarini ro'yxatga olish ishlarni olib borishda Yerni masofadan zondlash usullarini qo'llash;
- Geodeziya, kartografiya va kadastr yuritish xizmati va ilmiy loyihalash institutlari va ularning joylardagi bo'limlarida Yerni masofadan zondlash materiallaridan foydalanish ishlarini tashkil qilish masalalarini o'rganish;
- xududning tabiiy resurslari va ekologik sharoitini o'rganish, yer tuzish, geodeziya, kartografiya va kadastr sohalari, irrigatsiya tizim xavza boshqarmalari va ilmiy tadqiqot institutlari ishi bilan tanishish, laboratoriya jihozlarini ishlatish ko'nikmasiga ega bo'lish, o'rganilgan va hisoblangan ma'lumotlarini to'plash va taxlil qilish asosida hisobotni tayyorlash, zamonaviy Yerni masofadan zondlash bo'yicha texnika va texnologiyalarni tadbiq qilish hamda texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash ko'nikmalariga ega bo'lish, to'plangan ma'lumotlarni qayta ishlashda amaliy xulosalar ishlab chiqishni o'rganishdan iborat.

## **II. BITIRUV MALAKAVIY ISHI OLDI AMALIYOTI O'TISH JOYI VA UNI TASHKIL ETISH**

Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyoti quyidagi korxonalar va tashkilotlarda olib borilishi mumkin: "Geoinnovatsiya markazi" DUK, Kadastr agentligi huzuridagi Davlat kadastrlari palatasi, Respublika aerogeodeziya markazi, "Kartografiya" DIICHK, Kadastr agentligining viloyati boshqarmalari, Davlat kadastrlari palatasining viloyat boshqarmalari, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligida olib boriladi.

Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyotlariga kafedradan professor-o'qituvchilar va yuborilgan tashkilot yoki korxonadan yetakchi mutaxassislar rahbar sifatida biriktiriladi. Kafedradan amaliyot rahbar, amaliyot ob'ektlari OTM rektori buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu buyruq asosida talabaga amaliyotga borish uchun rektor buyrug'i, yo'llanma xat va kundalik taqdim qilinadi. Ushbu xujjatlar bilan buyruqda ko'rsatilgan muddatda talaba amaliyot ob'ektiga borib, tashkilot yoki korxonaning amaliyot o'tash bo'yicha ichki buyrug'i rasmiylashtiriladi. Ushbu

buyruqda, talabaga tashkilotdan yetakchi mutaxassislar amaliyotga mas'ul sifatida birlashtirilgan, amaliyot davrida talabaga rahbarlik qiladi.

Bundan tashqari amaliyotga ketish oldidan talabalarga texnika xavsizligi qoidalari haqida yo'riqnoma olib boriladi va maxsus qaydnomaga yozib qo'yiladi. Bundan tashqari amaliyot o'tkazish joyida xam texnika xavsizligi qoidalari bilan yana bir marotaba tanishtiriladi.

### **III. AMALIYOTGA RAHBARLIK QILUVCHINING VA TALABANING VAZIFASI**

Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyoti 5311200 (60722700)-Yerni masofadan zondlashda innovatsion texnologiyalar va 5313400 (60722600) - Geodeziya va geoinformatika bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejasiga kiritilgan bo'lib, amaliyotni talab darajasida o'tkazishni tashkil etish uchun talabaga kafedradan va ishlab chiqarish tashkilotidan malakali professor-o'qituvchilar va xodimlar rahbar sifatida tayinlanadilar.

O'qituvchining rahbarlik vazifasiga quyidagilar kiradi: Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyoti boshlanishidan oldin kafedradan tayinlangan rahbarlar ishtirokida amaliyotgan boruvchi talabalar bilan maxsus uchrashuv o'tkaziladi. Uchrashuvda talabalarga amaliyot va uni o'tkazish bilan bog'liq tushuntirish ishlari olib boriladi, ular zaruriy xujjatlar, jumladan kafedra tomonidan ishlab chiqilgan yo'riqnoma yoki uslubiy ko'rsatma va rektorning buyrug'i asosida tayyorlangan yo'llanma bilan ta'minlanadilar. Amaliyot ob'ektlari bo'yicha rahbar o'qituvchi, talabalarning amaliyot davrida bajarilishi lozim bo'lgan barcha ishlarni qay darajada bajarilishini nazorat qiladi va zarur vaqtlarda kerakli maslaxatlarni berib boradi. Har bir talabaning amaliyotga borishi va unga yaratilgan sharoit hamda xavfsizligini ta'minlash uchun rahbar o'qituvchi mas'uldir. Agarda talaba o'z vaqtida amaliyot ob'ektiga bormagan bo'lsa, rahbar o'qituvchi kafedraga habar beradi. Talaba hisobotining bajarilishi va mazmuni bo'yicha o'z xulosasini kafedra tomonidan tuzilgan amaliyotni qabul qilish hay'atiga taqdim etadi.

Tashkilot yoki korxonadan biriktirilgan rahbarning asosiy vazifasi: rektori buyrug'i bilan tashkilotga yuborilgan talaba va uning amaliyot rahbarini qabul qilib oladi. Ularga turar joy, ijtimoiy shart-sharoitlar, amaliyot ob'ektini va qaysi mutaxassislar bilan ishlash sharoitlarini yaratib beradi.

Korxonada rahbari talabalarga kelgan kundan boshlab, kafedra tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy ko'rsatma va ilmiy rahbarining yozma topshiriqnomasi asosida korxonaning amaliyot dasturiga tegishli bo'limlarida bo'lib, texnikaviy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini, boshqaruv tizimi va 4-bosqichda BMI ni bajarish va hisobot yozish uchun zarur materiallar bilan tanishish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib beradi.

Rahbar tomonidan amaliyot muddati tugagandan keyin talabaga tavsifnoma, kundalik, hisobot yakunlarini korxonada muhri bilan tasdiqlash ishlari amalga oshiriladi.

Ob'ekt rahbari talaba va amaliyot rahbari uchun mas'ul hisoblanib, ularning ish faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish ishlari olib boradi.

Talabaning vazifasi: Talabalar bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyotiga borishdan avval ilmiy rahbari bilan uchrashib, bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyoti davomida bajariladigan ishlar, kundalik yuritish, hisobot tayyorlash hamda bitiruv malakaviy ishi uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha yozma topshiriqlar oladilar. Xususan talabalar, amaliyot ob'ektining manzili, xizmat safari bo'yicha rasmiy hujjatlar, amaliyotda bajariladigan ishlar, amaliyot natijalari bo'yicha hisobot yozish va uni rasmiylashtirish, himoya qilish, bitiruv malakaviy ishi uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va boshqalar haqida to'lik tassavur xosil qilishlari lozim.

Ob'ektdan topshiriq bo'yicha olib kelingan ma'lumotlar nusxasini ham hisobotga tikadi. Talaba amaliyotga borish to'g'risidagi rektor buyrug'i va kafedra tomonidan ishlab chiqilgan yo'riqnomaga yoki uslubiy ko'rsatma bilan tanishadi, kafedra tomonidan belgilangan amaliyot o'qituvchisi bilan uchrashib amaliyot ob'ektiga borish va uni o'tkazish to'g'risida ko'rsatmani, OTM tomonidan xizmat



safariga jo'nash to'g'risidagi guvohnomani, bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyotini o'tkazish to'g'risidagi OTM rektorining buyrug'idan ko'chirmani kafedradan oladi.

Kafedradan amaliyotga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi bilan uchrashib ob'yektga boradi. Tashkilot rahbariga OTM buyrug'i va amaliyotning maqsadini tushuntiradi. Tashkilot rahbari talabalarni tegishli yo'nalishlar bo'yicha mutaxassis yoki rahbarga biriktiradi. Amaliyot dasturi bo'yicha kerakli bo'limlarning faoliyatini o'rganadi. Har kuni ichki tartibga rioya etgan holda, faoliyat yuritadi. Kunlik qilingan ishlarni amaliyot o'tish kundaligiga yozib, unga biriktirilgan mutaxassisga tasdiqlatib boradi. Amaliyot muddati tugagach, kundalikni tasdiqlatib, olingan ma'lumotlarlar asosida hisobotni tayyorlaydi. Tashkilot rahbari tomonidan talaba ish faoliyati to'g'risida tavsiyanoma beriladi (ob'yekt rahbari tomonidan tasdiqlanib muhr qo'yiladi). Tayyor hisobot belgilangan muddat ichida kafedrada hisobotni qabul qilish uchun tuzilgan hay'atga himoya uchun taqdim etiladi.

#### IV. BITIRUV MALAKAVIY ISHI OLDI AMALIYOTI REJASI

Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyotini o'quv rejasiga binoan 10 hafta davomida quyidagi tartibda tashkil qilish tavsiya qilinadi.

<b>№</b>	<b>Amaliyot bosqichlari</b>	<b>Bajariladigan ishlar</b>	<b>O'tkazish joyi</b>	<b>Amaliyot muddatlari</b>
I	Amaliyotni tashkil etish bosqichi	OTM tomonidan talaba yo'llanmasini rasmiylashtirish. Amaliyot dasturi, o'tkazish muddati, joyi, texnika xavfsizligi qoidalari bilan talabalarni tanishtirish.	Oliy ta'lim muassasi	Xaftaning 1-kuni
II	Tayyorgarlik bosqichi	Tashkilotga tashrif va kadrlar bo'limida rasmiylashtirish jarayoni. Tashkilot tartibi, strukturasi, ish rejimi bilan tanishish. Texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnoma bilan tanishish	Amaliyotga yuborilgan tashkilotda	1-xaftaning 2-kuni
III	Ishlab-chiqarish bosqichi	Ish jarayonida soha bo'yicha ko'nikmalarini egallash. Viloyat, tuman va massivlarning geografik joylashishi o'rni, xududning iqlimiy omillari, tuproq sharoitini ma'lumotlarini, tegishli xududlar ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini va o'tkazilgan qidiruv tadqiqot ishlaridan olingan natijalarni to'plash, topografik s'yomka asosida planga olish. Tabiiy resurslar, suv ob'ektining va daryo xavzasining sxematik xaritasini chizish. Yerni masofadan	Amaliyotga yuborilgan tashkilotda	1-9 haftalar

		zondlash ma'lumotlari, geodezik-kartografik kuzatish, o'lchash jarayonlarida bevosita ishtirok etish. Olingan ma'lumotlar va natijalarni qayta ishlash, tizimli tartibga keltirish, BMI uchun ilmiy texnik axborotni shakllantirish. BMI bo'yicha tadqiqot ob'yektlari bo'yicha dala ishlari, deshifrovka jarayoni, aero va kosmik suratlar yordamida ob'yektlarni o'rganish, ma'lumotlar olish		
IV	Amaliyot hisobotini tayyorlash bosqichi	Amaliyot davomida olingan ma'lumot, kuzatilgan va o'lchangan natijalarni qayta ishlash, belgilangan tizimga keltirish va hisobotga rasmiylashtirish. Bitiruv oldi amaliyoti hisobotini tayyorlash, belgilangan tartibda rasmiylashtirish. Tashkilotdan kerakli xujjatlarni rasmiylashtirish. Jumladan, kundalikni tegishli tartibda rasmiylashtirib, tashkilotdan biriktirilgan rahbar tomonidan tegishli xulosa, tavsiya va takliflarni olish, tashkilot rahbari tomonidan amaliyot davridagi o'zlashtirish, o'zini tutish, sohaga bo'lgan ishtiyoqi, qanchalik darajad ko'nikma va malakaga ega bo'lganligi to'g'risida xulosa va amaliyotga berilgan bahoni o'zida aks ettirgan tavsifnoma hamda BMI oldi amaliyoti hisoboti. Bitiruv oldi amaliyoti hisoboti himoyasi.	Amaliyotga yuborilgan tashkilotda, OTMda	10-xafta

## **V. BITIRUV MALAKAVIY ISHI OLDI AMALIYOTI KUNDALIGINI YURITISH**

Amaliyot davrida shaxsiy kundalik yuritiladi va unda bajarilgan ishlar yozib boriladi. Uning shakli va mazmuni shunday tuzilishi kerakki xisobotda xudud ma'lumotlari, chizmalar, grafiklar, hisob-kitoblar, taxlillar aniq keltirilgan bo'lishi kerak, chunki keyinchalik bitiruv ni yozishda foydalanish mumkin bo'ladi. Amaliyot yakunida amaliyot bajarilgan va to'plangan materiallardan kelib chiqib, hisobot tayyorlaydi.

## **VI. BITIRUV MALAKAVIY ISHI OLDI AMALIYOTINI O'TKAZISHDA TEXNIKA XAVFSIZLIGI QOIDALARI**

Barcha amaliyot o'tkaziladigan korxonalarda, tashkilotlar, birlashmalarda maqsadga erishish va amaliyotni muvafaqiyatli amalga oshirish uchun talabalarga

xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, ya'ni xavfsizlikni ta'minlash tadbirlari rivojlantiriladi. Xududlardan foydalanish jarayonida asosan mehnat muxofazasi qoidalariga qat'iy amal qilish lozim.

O'lchov, kuzatish, dala tadqiqotlarida olib boriladigan ishlarni xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi vazifalarga amal qilinadi:

1. Mehnat sharoitlari xavfsizligini tashkil etish, ishchilarga ishning xavfsiz usullari bo'yicha yo'llanma berish va o'rgatish, texnika xavfsizligi qoidalari va yo'l-yo'riqlarni ekspluatatsiya xodimlari tomonidan bajarilishini nazorat qilish ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot boshlig'i va boshqarmaning mas'ul biriktirilgan mutaxassisi tomonidan amalga oshiriladi.

2. Ekspluatatsiya davrida me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilinishi zarur.

3. Texnika xavfsizligi bo'yicha Respublikada mavjud me'yoriy hujjatlar asosida mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda gidrouzel inshootining texnika xavfsizligi bo'yicha qo'llanmasi tayyorlanadi.

5. Har bir talaba o'z ish joyi bo'yicha mavjud texnika xavfsizligi qoidalarini bilishi va bajarishi lozim.

6. Talabalar hayoti va sog'lig'iga xavf tug'diradigan sharoitlar paydo bo'lganda qilinayotgan ishlar to'xtatiladi va bu haqda tegishli jurnalga qayd qilinadi.

7. Talabalar inventarlar bilan ishlashda ularga beriladigan shaxsiy muhofaza vositalaridan foydalanish bo'yicha belgilangan qoidalarga amal qilishlari shart, texnika xavfsizligi bo'yicha ko'rsatmalar va qoidalariga qat'iy amal qilishlari kerak. Nosoz asbob-uskunalarda, to'siqlar olinganda yoki nosoz to'siqlar mavjudligida, muhofaza vositalarining yo'qligi yoki sharoitlar tufayli talabalar hayotiga va sog'lig'iga xavf tug'dirganda ishlarni bajarish man qilinadi. Ishda foydalaniladigan asbob-uskunalar soz bo'lishi kerak.

Amaliyot davrida olib boriladigan o'lchov ishlarida talabalar bilan inshoot, ko'prik, qayiq va ayrim jihozlardan foydalaniladi. Shu tufayli quyidagi xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi shart.

1. Xududlarda ishlovchi barcha talabalar suzishni, qayiq eshishni kerakli xollarda birinchi tez tibbiy yordamini ko'rsata bilishlari lozim.
2. Dala o'lchash ishlariga yurak xastaligi, boshi aylanadigan va kam quvvatli talabalarga ruxsat berilmaydi.
3. Amaliyot davrida spirtli ichimliklar ichish va mast xolda o'lchov ishlarida qatnashish qat'iyman man etiladi.
4. Qayiqdan foydalanilganda albatta unda o'tirgan talabalar po'kakli xavf bilan ishlashlari lozim.
5. Zararli xashoratlardan va zaxarli ilonlardan xavfni oldini olish maqsadida engil ochiq poyafzalda yurish man etiladi. Tog' jinslari namunalarini olishdan oldin namuna olinadigan jins bolg'a bilan astagina urib ko'rilishi kerak. Changalzorlar va baland qalin o't bosgan joylardan yurilganda tayoqchadan foydalanish kerak bo'ladi.
6. Quyoshda ishlagan vaqtda, suvga yiqilgan yoki cho'kayotgan odamni aniqlaganda darhol unga yordam berish choralarini ko'rish lozim, tovushli signal bilan yordamga chaqirish va shikastlangan kimsaga birinchi tez tibbiy yordamni berish lozim.
7. Ob-havo sharoiti keskin o'zgarsa, shamol, yomg'ir yog'sa barcha o'lchov ishlari to'xtatilishi lozimdir.
8. Amaliyot rahbarlari ruxsatisiz belgilanmagan xududga borish, gidrotexnika inshootlarini ko'zdan kechirish, o'tish mumkin emas.

## **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Engineering Surveying - W.Schofield 2014. – 534 pages.
2. Klyushin E.B. Injenernaya geodeziya. M., Vysshaya shkola. 2000.– 464 s.
3. Nurmatov E.X., Utanov U. Geodeziya. T.: «O'zbekiston», 2002. – 234 b.
4. Abdullayev T.M., Inamov A. N., Lapasov J.O. Injenerlik geodeziyasi gidrotexnika nshootlarini qurishda geodezik ishlar TIQXMMI, 2019. 152 b
5. Norxxo'jaev Q.N. Injenerlik geodeziyasi «O'qituvchi», 1984. – 410 b.
6. Avchiev SH.K. “Amaliy geodeziya”. Darslik. T., Voris, 2010. – 351 b.
7. Nishonboev N.M., Xudoyberganov Sh., Islomov O'.P. “Injenerlik geodeziyasi amaliy mashg'ulotlari bo'yicha o'quv qo'lanma”. T.,TIMI, 2015.-127 b

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Zhiping Lu., Yunying Qu., Shubo Qiao, Geodesy. W.Schofield 2014. – 534 p.
2. Basic Geodesy Rockville, Md. September 2010 – 424 r.
3. History of Geodesy, Institute of Geodesy, University of Stuttgart 2010. – 249 r.
4. Bagratuni G. V., Ganshin V.N., Danilevich B.B. “Injenernaya geodeziya”. Uchebnik. M., Nedra, 1984.-344 s.
5. Muborakov H., Axmedov S. Geodeziya va kartografiya. Toshkent: O'qituvchi, 2002. – 304 b.
6. Oxunov Z. Geodeziyadan praktikum. Toshkent: Universitet, 2009. 200 b.
7. Hayitov X.J. Injenerlik geodeziyasi fanidan o'quv amaliyotini o'tkazish bo'yicha uslubiy ko'rsatma. Toshkent.: TIMI, 2012.-64 bet.

### **Axborot manbaalari**

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
3. [www.catback.ru](http://www.catback.ru) - научные статьи и учебные материалы
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)
6. [www.geodeziy.ru](http://www.geodeziy.ru)
7. [www.miigaik.ru](http://www.miigaik.ru)
8. [www.gsi2000.ru](http://www.gsi2000.ru).
9. [tjame.uz](http://tjame.uz)

## MUNDARIJA

<b>№</b>	<b>Amaliyot mazmuni</b>	<b>bet</b>
1	Kirish	5
2	Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyoti maqsadi va vazifalari	6
3	Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyoti o'tish joyi va uni tashkil etish	7
4	Amaliyotga rahbarlik qiluvchining va talabanning vazifasi	8
5	Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyoti rejasi	10
6	Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyoti kundaligini yuritish	11
7	Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyotini o'tkazishda texnika xavfsizligi qoidalari	11
8	Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati	14

